

KORXONANING IQTISODIY SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH JARAYONLARI

Samatov Azizjon Abdulaxatovich

Toshkent Menejment va iqtisodiyot instituti PhD, dotsenti.

ORCID: 0009-0008-1391-0720 aziz_samatov@gmail.com

Kushbakov Baxrom Almamatovich

Toshkent Menejment va iqtisodiyot instituti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20228970>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Innovatsion rivojlanish sharoitida korxonaning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish haqida soʻz yuritiladi. Maqolada innovatsion rivojlanish fikr va mulohazalar berib oʻtilgan. maqola soʻnggida xulosa va adabiyotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: Innovatsion rivojlanishda korxonaning iqtisodiy salohiyat koʻrsatkichlari, Innovatsion fikrlar, iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish.

Abstract. This article discusses the effective use of the economic potential of an enterprise in the context of innovative development. The article presents ideas and comments on innovative development. At the end of the article, a conclusion and literature are presented.

Keywords: Indicators of the economic potential of an enterprise in innovative development, Innovative ideas, effective use of economic potential.

Iqtisodiyotimizning jahon xoʻjalik va moliyaviy-iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotganini inobatga oladigan boʻlsak, jahon moliyaviy inqirozi, avvalo uning oqibatlari bizga ham salbiy taʼsir koʻrsatayotgani haqida gapirib oʻtirishning hech qanday zarurati boʻlmasa kerak, deb oʻylayman.

Bunday taʼsir, avvalambor, umuman dunyo bozoridagi talab va narxlarning keskin tushib ketishida va tabiiyki, mamlakatimiz eksport qiladigan mahsulotlarning muhim turlariga nisbatan hamda eksportga yoʻnaltirilgan yetakchi tarmoqlar va ular bilan bogʻliq turdosh korxonalar faoliyatida namoyon boʻlmoqda.

Bizning keyingi yillarda eksport sohasida qoʻlga kiritgan yutuqlarimiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotini tubdan tarkibiy oʻzgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda biz uchun mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarni barpo etish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida oʻz vaqtida boshlangan, chuqur oʻylangan va uzoq istiqbolga moʻljallangan ishlarimizning natijasidir.

Hozirgi mavjud sharoitda 2022 yilga moʻljallangan iqtisodiy dasturning eng ustuvor vazifalarini belgilab olishda koronavirus pandemiyasi va Ukrainadagi urush (sanksiyalar) bilan bogʻliq inqirozning taʼsiri va oqibatlarini yetarlicha toʻliq hisobga olish juda muhim. Dunyoning nufuzli ekspertlari tomonidan bildirilayotgan fikrlarga koʻra, bu inqiroz 2022 yil yakuniga qadar davom etishi ehtimol yanada chuqurlashishi kutilmoqda.


Shundan kelib chiqqan holda, oʻz-oʻzidan ayonki, pandemiya koronavirusi bilan bogʻliq inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf etish boʻyicha 2020—2023 yillarga moʻljallab qabul

qilingan “Inqirozga qarshi choralar” dasturi O‘zbekistonni 2024 - 2026 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirishning eng ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyoti barqaror rivojlanayotgani uzoq muddatga mo‘ljallangan iqtisodiy va tarkibiy islohotlar strategiyasini amalga oshirishning samarasi hisoblanadi. O‘zbekiston boshqa mamlakatlardagi inqirozlardan to‘g‘ri xulosa chiqargan sanoqli davlatlardan biridir. Tashqi qarzlarning masalasiga oqilona yondashuv va ularga haddan tashqari berilishga yo‘l qo‘yilmagani ham shundan dalolat beradi.

Innovatsion rivojlanishning korxonalar funksiyalarini bajarish ko‘rsatkichlarining tizimlashtirilmagan ro‘yxatidan muhim farqi shundan iboratki, moliya-kredit tizimi (MKT) tarkibiga kiruvchi ko‘rsatkichlar bevosita korxonaning strategik maqsadlariga yo‘naltirilgan, shuningdek, ular asoslangan belgilar bo‘yicha o‘zaro bog‘langan va guruhlangan.

Mazkur konsepsiyada korxonaning ichki va tashqi muhitida harakat qiluvchi sub‘ektlar o‘rtasidagi kommunikatsiyalarni o‘rnatish va saqlab turishga; amal-dagi (amaliyotga joriy etilayotgan) muvozanatlashtirilgan ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqishda korxonaning xodimlari va ular bilan (kommunikatsiyalar tizimi orqali) o‘zaro hamkorlik qiluvchi boshqa sub‘ektlar vakillarining ishtirok etishini nazarda tutuvchi motivatsiya omiliga katta ahamiyat beriladi.



Innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlar tizimi kompaniyaga strategik rejalashtirish va joriy byudjetni tashkil etish jarayonlarini birlashtirish imkonini beradi. Uch-besh yilga mo‘ljallangan asosiy maqsadli strategik ko‘rsatkichlarni aniqlash bilan bir vaqtning o‘zida menejer korxonalar 12 oy mobaynida qanchalik uzoqqa siljishi mumkin degan savolga javob berishga uringan holda keyingi moliyaviy yil uchun har bir parametrga prognoz beradi.

Ushbu yillik prognozlar kompaniya harakatining uzoq muddatli strategik doirasida rivojlanishdagi taraqqiyotni baholash imkonini beradi.

Quyidagi jadvalda Innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlar tizimini joriy etishning asosiy bosqichlari aks ettirilgan.

Ko‘rib chiqilayotgan konsepsiyaning joriy etilishi tashkiliy strategiyani amalga oshirish jarayonining keng ko‘lamli qayta qurilishini anglatadi.

**Innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlar tizimini
joriy etishning asosiy bosqichlari**

1-qadam	Istiqbolni aniqlash	Tashkilot uchun istiqbolni aniqlash
2-qadam	Strategiyalarni aniqlash	Biz qanday strategiyalarga amal qilamiz? Biz qanday jihatlarga e'tibor qaratamiz?
3-qadam	Istiqbol va muvaffaqiyat omillarini aniqlash	Istiqbollari va muvaffaqiyat omillari qanday bo'lishi kerak?
4-qadam	Ko'rsatkichlarni aniqlash	Istiqboldagi har bir davrda ko'rsatkichlar qanday bo'lishi kerak?
5-qadam	Hisob-kitob usullari	Ko'rsatkichlar qiymatini qanday qilib hisoblab chiqamiz?
6-qadam	Harakatlar rejalarini yaratish	Oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun qanday choralar ko'rilishi kerak?
7-qadam	Boshqarish va rivojlanish	Biz o'z MKTmizni qanday rivojlantiramiz, yangilaymiz va qo'llab-quvvatlaymiz?

Manba: Xorijiy adabiyotlar asosida tuzilgan.

Shu munosabat bilan quyidagi ikki holatni hisobga olish lozim. Birinchidan, ushbu tizimning qo'llanilishi strategiyani ishlab chiqish jarayoni emas, balki korxonada aniq ifodalangan strategiyaning mavjud bo'lishini nazarda tutuvchi amalga oshirish jarayonidir. Ikkinchidan, yangi konsepsiyani ko'rsatkichlar tizimi sifatida emas, balki boshqaruvning keng qamrovli tizimi sifatida qabul qilish lozim. Uni joriy etishda monetar va nomonetar ko'rsatkichlarni biror-bir shaklda tizimlashtirishga urinmaslik darkor.

Innovatsion rivojlanishning to'rt tarkibiy qismi - moliyaviy, mijozlar, biznes-jarayonlar, xodimlarni o'qitish va rivojlantirish - uzoq muddatli va qisqa muddatli maqsadlar o'rtasida, ko'ngildagi natijalar va ularga erishish omillari o'rtasida, shuningdek, qat'iy ob'ektiv va mezonlar bilan yumshoqroq sub'ektiv ko'rsatkichlar o'rtasida muvozanatga erishish imkonini beradi. Bir qarashda, ko'p rejaviy muvozanatlashtirilgan tizim murakkab va chigaldek tuyuladi, biroq aslida, to'g'ri tuzilgan ushbu tizim maqsadlarning umumiylikini aks ettiradi, chunki barcha parametrlar yagona strategiyani bajarishga yo'naltirilgan:

1. Moliyaviy tarkibiy qism. Ushbu ko'rsatkichlar innovatsion rivojlanishda saqlangan, chunki ular qo'llanilgan harakatlarning iqtisodiy oqibatlarini baholaydi va kompaniya strategiyasining muvofiqligi, uning amalga oshirilishi va korxonani takomillashtirishning umumiy rejasiga joriy etilishi indikatorlari hisoblanadi. Odatda, moliyaviy maqsadlar foydalilikka kiradi va, masalan, operatsion foyda, band kapitalning daromadlilikligi yoki, huddi yaqin vaqtgacha bo'lgani kabi, qo'shilgan qiymat bilan o'lchanadi. Sotuvlar hajmini jadal sur'atlar bilan oshirish yoki naqd pul oqimini hosil qilish muqobil moliyaviy maqsadlar bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.// G. Xalq so‘zi, 2022 yil, 29-yanvar.
2. Voronin S.A. Nalogooblojenie kak instrument stimulirovaniya innovatsiy. // «Obshchestvennie nauki v Uzbekistane», №1, 2021g., s.29-34.
3. <http://www.eoq.org>
4. <https://www.iso.org/obp/ui/#iso:std:iso:9001:ed-5:v1:ru>
5. Innovatsiya — dvijushaya sila kitayskogo obshchestva v sovremennuyu epoxu. //Ekonomist. № 4. 2021 g. S. 6.